

TALABA – QIZLARDA TAZYIQ VA TAJOVUZGA QARSHI DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ASOSLARI

**Uktamova Umida Sunatullaevna, JDPI, o'qituvchisi.
Safarova Iroda, JDPI talabasi**

Annotatsiya: maqolada talaba qizlani erta turmush qurushlarining quvonch-u tashvishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va uning mazmun moxiyati yoritib berish, talaba qizlarning oilaviy muammolar yechimi oiladagi sog'lom psixologik muhit yaratilishiga, oilaviy zo'ravonlik va uning kelib chiqish sabablari, oilaviy muhitda ijtimoiy etishmovchilik oqibatlari, erta ajrimlarni oldini olish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: erta murmush, ijtimoiy – moddiy etishmovchilik, tazyiq va tajovuz, mehr – oqibat, oilaviy zo'ravonlik, g'amho'rlik, ruhiy zo'ravonlik, iqtisodiy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik.

Xotin-qizlar qo'mitasi ayollarni turmushda, ish joylarida va ta'lim muassasalarida tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan qonun loyihasini taqdim etdi.

Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilindi. Hujjat O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan ishlab chiqildi. Qonun loyihasini ishlab chiqish to'g'risidagi topshiriq prezidentning 7-martdagi qaroridan o'rinn olgan edi.

Qonun loyihasi ayollarni turmushda, ish joylarida, ta'lim muassasalarida tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga, shuningdek tazyiq va zo'ravonlik qurbanlarini huquqiy hamda ijtimoiy himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu qonun maqsadlari uchun 18 yoshga to'limgan ayol jinsiga mansub shaxslar ham ayol deb e'tirof etilishi keltirib o'tilgan. Hujjatda zo'ravonlik turlari (ruhiy, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy) aniqlab olinib, g'ayriijtimoiy xulq-atvor, «qurban», «tazyiq» tushunchalariga izoh berilgan.

Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosati quyidagilardan iborat ekani sanab o'tilgan:

- ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash;
- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, oilaviy-maishiy munosabatlar sohasidagi qonuniyligini, shuningdek ish joylari va ta'lim muassasalaridagi munosabatlarni mustahkamlash;
- turmushda, ish joylarida va ta'lim muassasalarida ayollarga, nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etilishiga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

- turmushda, ish joylarida va ta'lim muassasalarida ayollarga, nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni aniqlash, ularga chek qo'yish va ularning oldini olish uchun samarali qonunchilik mexanizmlarini yaratish;
- turmushda, ish joylarida va ta'lim muassasalarida tazyiq o'tkazish va zo'ravonlik sodir etishga moyil shaxslarning, shuningdek ayollarga hamda talaba qizlarga tazyiq o'tkazadigan va zo'ravonlik sodir etadigan shaxslarning xulq-atvorini tuzatish yuzasidan tadbirlar amalgalash;
- tazyiq va zo'ravonlik qurbanlari bo'lган ayollarni himoya qilish, ularga yordam ko'rsatish, reabilitatsiya qilish uchun asoslar yaratish hamda ayollar tazyiq va zo'ravonlik qurbanlariga aylanish xavfini kamaytirish;
- ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish maqsadida turli institutlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash.
- Qurbonga yoki tazyiq o'tkazish va zo'ravonlik sodir etish xavfi ostidagi shaxsga ichki ishlar organlari tomonidan himoya orderi beriladi, zarurat tug'ilgan taqdirda, ular maxsus markazlarga joylashtiriladi.

Hozirgi kunda oila ijtimoiy tashkilot sifatida jamiyatga va uning negizlari, turmush tarzining qaror topishiga chuqur ta'sir ko'rsatadi, chunki bo'lg'usi ona aynan shu oilada kamolga etkaziladi, talaba qizlarning dunyoqarashiga oid asoslari, ruhiy ma'naviy fazilatlari shakllanadi. Talaba qizlarning hayotida turmushga chiqish eng asosiy voqeа bo'lib qoladi. Otasining uyida o'tgan hayoti uning kelin (qaynonasi uchun), xotin (eri uchun) va ona (farzandlari uchun) bo'lishiga tayyorgarlikdir. Xalq maqolida "Qiz bola birovning xasmidir" deydi. Chaqqon va kamgap qizning nikohga taylorlanishi zamonaviy ayol andozasidir. Ayolning oiladagi roli ikkinchi darajali. Uyida erini chidamlilik bilan kutib o'tirgan ayol eng yaxshi xisoblanadi. Agar qiz oilada o'zi tanlagani borligi bo'lsa va unga turmushga chiqmoqchi ekanligini ota-onasiga aytsa, lekin oila boshlig'i tomonidan rad etiladi. Odatda tanishish sovchilar orqali amalgalash; oshirilgani ma'qul. Ota –onalarning roziligidan so'ng yoshlar birinchi uchrashuvga chiqadilar, undan keyin esa ular yoki ota – onalarning tanlovlарini tasdiqlashlari yoki rad etishlari lozim. Ko'pchilik hollarda ota-onaning tanlovi hal qiluvchi bo'ladi. Tahsil olayotgan talaba qizlarning fikrlarini inobatga olmay turib o'z roziliklarini sovchilarga berishadi. Talaba qizlarning turmushga chiqish yoki chiqmaslik hohishlarini namoyon qilish imkonini bermaydi. Afsuski, ayrim ota – onalarning fikr-u hayolida "qizim o'qish bilan bo'lib, yoshi o'tib boribdi" degan fikrda qotib qolishadi. So'nggi yillarda Oliy ta'lim muassasalarida yosh talaba yigit-qizlarning erta oila qurishi kuzatilmogda. Qonun tomonidan belgilangan nikoh yoshiga yetmagan qizlarni turmushga uzatish ayniqsa shaharlik talabalarda ko'proq uchraydi. Ona va bolalar o'limi aksariyat hollarda aynan 16-18 yoshda turmush qurbanlar orasida uchramoqda. Yosh oilalar o'rtasida ajralishlarning ko'pligiga turlicha sabablar ko'rsatilsa-da, aksariyat oilalardagi nochorlik va yetishmovchilik shu oilaning barbob bo'lishiga olib kelmoqda. Yosh talaba kelining shartnoma to'lovini o'z vaqtida qaynota va qaynonasi tomonidan to'lov amalgalash; oshirilmaganligi sababli talaba kelinga moddiy hamda ma'naviy zarar yetkazilmoqda. O'zbeklarda farzandni uylantirish yoki turmushga uzatish ota-ona burchi hisoblanadi. Biroq bu burchni tezroq ado etishga shoshayotgan ba'zi ota-onalar to'y-marosimlarini juda

erta, hatto qonunda belgilangan nikoh yoshiga yetmasdan turib ado etishga urinmoqda. “Oxirgi paytlarda bir holat mavjud: qiz bola mакtabni tugatar-tugatmasdan uning uyigasovchi serqatnov bo’lsa va u barvaqt turmush qursa, shu xonodon shu qadar fayzli ekanligidan go’yo dalolat bergandek. Mahalla-ko’ylarda, o’zbek oilalari orasida hattoki qizini tezroq erga berish norasmiy poygasi ham vujudga kelgan-da. Tibbiyat olimlari 18 yoshga yetgan qizlarning aksariyati hali to’liq yoshiga yetmagan, to’liq voyaga yetmaganligini, uning hayz ko’rayotgani uning albatta tug’a olish qobiliyatidan dalolat bermayotganligini, uning boshqa jinsiy a’zolari, bachadon va boshqa tug’ruq yo’llarining hali to’liq bog’liq bo’limgani, ichki sekretsiya bezlari yetarlicha rivoj topmaganligini aniqlashgan va 18-19 yoshgacha bo’lganlarning turmush qurishiga o’ta qarshi ekanliklarini ta’kidlashgan”.

Yoshlар 17-18 yoshdagi yigit-qizlarning oila qurishayotganligi boisini turlichа izohlashadi. Ba’zilarga ko’ra, erta turmush qurishga nafaqat ota-onalar, balki farzandlarning o’zi ham sababchi bo’lishadi. Ba’zi talaba qizlarimiz bor, o’qishdan chiqib olib, o’rtoqlariga qarab havaslari kelishadi turmushga chiqayotgan bo’lsa, masalan-da. Ota-onalari ham orzu-havas ko’ray deganday, vaqtliroq turmushga berishlari mumkin-da. Tanish-bilish qilishlari mumkin, qarindosh-urug’chilik qilishlari mumkin. Buzilib ketishlaridan qo’rqib ham shu narsani amalga oshirishadi. Oilali bo’lgandan keyin, boshi ikkita bo’lgandan so’ng ko’proq oila bilan shug’ullanadi, oilaga sho’ng’iydi degan maqsadda ham uylantirib yoki turmushga berishlari mumkin.

Xozirgi vaqtarda erta turmush qurgan oilalarda erta ajralish holatlari kuzatilmоqda. O’zbek to’ylarining benihoya dabdabali va serxarj o’tishi natijasida, to’y qilgan oilaning bir necha yillik qarzdorlik botqog’iga botishi-yu, shu bois chiqqan janjallar ham yosh oilalar bузilishiga sabab bo’lmoqda. Hozirgi kunda oilalarning mol-mulkka qarab qiz uzatishi judayam ko’payib bormoqda. To’y qilayotgan vaqtarda tovoqlar qilishadi bir-biriga, lekin buni qadriyatlarimiz deb hammasi to’y bo’lishdan oldin qilishadi. Tovoqlar, stenkalar berishadi, mana shular ko’p bo’lishi mumkin, ayrim talaba qizlarga yaxshi bo’lishi mumkinmas. Sababi ayrim talaba qizlarning o’zлari shartnomasi asosida taxsil olishadi. Chunki ota-onasining qurbi yetmasa qilolmaydi-da buni. Hamma qizlar ham tabiiy shu holatga uchrashi, chunki hamma bilan teng bo’lay deydi u ham. Lekin u qiz ota-onasining sharoitini ham tushunishi kerak-da. Albatta janjalga olib keladi, qancha moshina kelgani uning ZAGSiga. Bular uning kelajakdagи hayotini hal qilib bermaydi-ku baribir. “Masalan, 18-19 yoshdagi talaba bo’lmish yigit -qiz yaxshi ko’rishdi, lekin o’sha sevgisi ham hech qanchaga bormadi. Mana u ham ajralishdi. Turmushlari bir yilga ham borgani yo’q. Talaba qiz birovning uyiga borgandan so’ng, uning sharoitiga tushish uchun hali siz o’rganishingiz kerak ancha. Ha, uning o’zi hali past-balandni bilmaydi, borgan, qaynona-qaynotanining hurmatini joyiga qo’yish, eriniki. Hamma tomonlama bu qiz xullas oilaga tayyor emas, hali u past-balandni o’rganishi kerak. Yana yetmagandek, oliy ta’limdagi o’qishlaridan ham orqada qolib o’zlashtirolmay qoldi”. Yoshlarning kelishmovchiligi yetishmovchilikdan hozirgi yoshlarning hammasini yuragi tor bo’lib ketgan. Oilada ishqilib bola-chaqa bo’ladi, ularga kiyim-kechak kerak. Biri ro’zg’orga

yetsa, biri kiyimiga yetmaydi. Muammo shundan kelib chiqadi". 18-19 yoshda bu hali o'zi ishlab biror narsa topa olishi kerak bo'ladi. Ayniqsa hozirgi sharoitda ish topa olishning o'zi bir muammo. Ota-oni yoshi 50 dan oshgan bo'lsa, pensiya oladi. Shu nafaqaga qaraydi. Ishsizlar yollanib ishlashadi-da, kimgadir, nimagadir. 21 yoshli talaba qiz fikricha, hozirgi paytda ba'zi yigitlarning giyohvandlik va boshqa jinoiy ishlarga qo'l urayotgani ham yosh oilalar turmushi buzilishiga sabab bo'lmoqda deydi. Yoshlar o'rtasida erta turmush qurib, erta ajralishlarning sababi asosan yigitning yomon odatlarga berilishi. Masalan chekishi, ichishi, yoki yomon yo'llarga kirib o'g'rilik, bezorilik qilishi, o'zining jufti-halolini tushunmasligi va narkomaniyaga kirib kelishiga asosan ota-onasining befarqligi. Masalan bir yigit Rossiyaga qochib ketgan. Qamalib ham chiqqan edi bu yigit. Afsuski, o'sha yigitning ayoli oliy ta'limda qiynalib o'qibdi. Hozir xotini qiynalib yuribdi-da, turmushga chiqqaniga ming pushaymon bo'ladi. Ba'zi kuzatuvchilarga ko'ra, farzandli va yo yolg'iz qolgan yosh beva ayollarning o'z ota-onasi xonadoniga yana singib ketishi og'ir kechadi. O'z kunini o'zi ko'rishga harakat qilayotgan bunday yoshlar ko'p holda fohishalik yo'liga ham kirib ketishmoqda. Yosh oilalarning paydo bo'lishini milliy an'ana sifatida talqin qiluvchilar ham topiladi. Biroq ko'plab yoshlar va ziyolilarning bu an'anaga qarshi chiqayotgani jamiyat taraqqiyoti jarayonida ayrim urf-odatlar sekin-asta iste'moldan chiqarib tashlanishi lozimligini ko'rsatmoqda.

Xulosa qilganda, o'smir qizlar, talaba qizlar hamda balog'at yoshiga yetmagan qizlarni jismoniy, ham jinsiy balog'atga yetishida anchagina salbiy nuqsonlar bor, bu esa ularda o'tayotgan ko'pgina kasalliklar fiziologik jihatdan nimjon bo'lgan organizmda yuzaga kelayotganligini bildiradi. Bizning sharoitda yosh qizlarning to'liq balog'atga yetishi 19-20 yoshlarga to'g'ri keladi deyish mumkin. Qizlarning oilaviy hayotga jismonan, ma'nan va ruhan, reproduktiv va jinsiy hayot madaniyatiga tayyor bo'lмаган holda erta turmushga chiqishlari quyidagi oqibatlarga olib kelmoqda:

1. Yosh oilalar orasida ajralishlarning ko'payishi ajralishlar dastlabki besh yil davomida ro'y beradi;
2. Tug'ish vaqtidagi murakkabliklar; tug'ish va homiladorlik o'rtasidagi oraliq muddatining qisqarishi;
3. Biririchi bor tugayotgan va 20 yoshgacha bo'lgan yosh ayollar o'rtasida o'limning ko'payishi.

Bu holatlarni tahlil qilish uchun raqamlarga murojaat qilamiz. Respublikamizda o'tkazilgan sosiologik tadqiqotlarga ko'ra 45,1% qizlar 20 yoshgacha turmushga chiqishadi. Turmushga chiqqan ayollarning 37,4% 20 yoshgacha farzand ko'rishadi. Ulardan 20% 20 yoshgacha farzand ko'rsa, 15% ikkitadan, 1,4% uchtadan farzandli bo'lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Uktamova, U., & Berdiyorova, S. (2020). THE ROLE OF COMMUNICATION IN PEOPLE'S RELATIONSHIPS AND WAYS OF LEARNING TO COMMUNICATE. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 2.Uktamova, U. (2020). KICHIK MAKTAB YOSHIDA QOBILIYATNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. Архив Научных Публикаций JSPI.

- 3.Uktamova, U. (2020). Ў?увчиларга маънавий-ахлоқий тарбия бериш орқали экологик маданиятини шакллантириш. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 4.Berdiyorova, S., & Uktamova, U. (2020). РОЛЬ ОБЩЕНИЯ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ЛЮДЕЙ И СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ К ОБЩЕНИЮ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 5.Uktamova, U. (2020). АГРЕССИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ НА РАЗВИТИЕ ВЗГЛЯДОВ ДЕВУШЕК. EurasianUnionScientists, 1(10 (79)), 45-47.
- 6.Uktamova, U. (2020). ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИКНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАБЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
- 7.Сунатуллаевна УУ (2021 г., январь). ТАЛАБА КИЗЛАРДА ТАЗЫИК ВА ТАДЖОВУЗГА КАРШИ ДУНЁКАРАШНИ ШАКЛАНТИШ. В евразиатских конференциях (Том 1, № 1, стр. 504-508).
- 8.Уктаимова, У. (2020). ЁШЛАР ФАОЛИЯТИНИ БУНЁДКОР ?ОЯЛАР БИЛАН БАНД ?ИЛИШ МУАММОСИ. Архив Научных Публикаций JSPI .
- 9.Maxamatova, F. (2020). Таълим-тарбия самарадорлигини оширишда ота-она ибрат намунаси. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 10.Maxamatova, F. (2020). Педагогика фанини ў?итиш жараёнида муоммоли ўқитиш технологияларидан фойдаланиш. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 11.Maxamatova, F. (2020). Оилада фарзанд маънавий тарбиясига ру?ий таъсиirlар. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 12.Maxamatova, F. (2020). Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 13.Maxamatova, F. (2020). Современные тенденции" учитель-ученик" в системе непрерывного образования: проблемы и решения. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 14.Maxamatova, F. (2020). Развитие страхования в инновационной сфере. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 15.Davurova, G. (2020). Yosh ota-onalarining pedagogik-psixologik bilimlarini oshirishning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 16.Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 17.Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 18.Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
- 19.Davurova, G. (2020). Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi. Архив Научных Публикаций JSPI.